

---

## QO'SHTEPA TUMANIDA PAXTA YIG'IM-TERIMIGA START BERILDI



Avval xabar berganimizdek Qo'shtepa tumanida "Paxta-2023" yig'im-terim mavsumiga start berildi. Shu munosabat bilan bugun Qamishtepa MFY hududidagi "Nuroniylar oromgohi" da tumandagi sektor rahbarlari, mehnat faxriylari, qishloq xo'jaligi tashkiloti rahbarlari, nuroniylar va fermer xo'jalik rahbarlari ishtirokida tadbir tashkil etildi.

Tadbirda tuman hokimi I. Novikov so'z olib, paxtakor dehqonlarning agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarib, hosilni yig'ib olishdek mas'uliyatli mavsumga yetib kelganliklari bilan tabriklab, paxta hosilning sifatli terib olinishida fermer xo'jaliklariga kuch-g'ayrat tiladi. Jonliq so'yilib, Qur'on tilovat qilindi. Hosil barakasi uchun duolar o'qildi.

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#),

2023-08-23 18:20:57